

TOG‘AY MURODNING “OYDINDA YURGAN ODAMLAR” ASARIDA BARQAROR BIRIKMALARNING QO‘LLANISHI

G‘iyozova Zulfizar Elyor qizi

NavDPI, O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi

E-mail: zulfizargiyozova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Oydinda yurgan odamlar” asari tarkibidagi barqaror birikmalar haqida so‘z yuritiladi va misollar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: Maqol, ibora, hikmatli so‘z, barqaror birikmalar, frazeologizmlar.

THE USE OF STABLE COMPOUNDS IN TOGAY MURAD’S WORK “PEOPLE WALKING ON THE MOON”.

Abstract: This article talks about stable compounds in the work "People on the Moon" and gives examples.

Key words: proverb, phrase, wise saying, stable combinations, phraseology.

Ikki va undan ortiq so‘zlarning o‘zaro barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutq jarayoniga tayyor holda olib kiriluvchi, til egalari xotirasida imkoniyat sifatida mavjud bo‘lgan til birliklari barqaror birikmalar deyiladi.

Barqaror birikmalarning eng xarakterli belgilari quyidagilar:

1. Nutq jarayoniga qadar tilda mavjudlik: nutqqa tayyor holda olib kirishlik.
2. Ma’no butunligi.
3. Tuzilishi va tarkibining barqarorligi.

Barqaror birikmalardan o‘rinli foydalanish nutq go‘zalligini ta’minlaydi, shuning uchun ular nutqimiz ko‘rki hisoblanadi.

Barqaror birikmalarni o‘rganuvchi tilshunoslik bo‘limi paremiologiya (lot. parema- barqaror, logos- ta’limot), barqaror birikmalar lug‘atini tuzish muammolarini

o‘rganuvchi bo‘limi esa paremiografiya (lot. parema-barqaror, grapho – yozaman) sanaladi.

Barqaror birikmalar nutqqa tayyor holda olib kirilishi, tarkibiy qismlarining barqarorligi belgisiga ko‘ra umumiylikni tashkil etsa ham, ma’no butunligi nuqtayi nazaridan turlichadir. Shunga ko‘ra barqaror birikmalar quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

1.Frazeologizmlar.

2.Maqol va matallar.

3.Aforizmlar.

Endi asar tarkibidan misollar keltirib o‘tamiz. Qo‘shimcha tarzida topishmoqlarni ham havola qilamiz.

Maqollar:

Aslini bilmay, so‘z demaslar, naslini bilmay, qiz bermaslar.

Ko‘ngling bilan eshit—quloq aldaydi, aqling bilan ko‘r – ko‘z aldaydi.

Chiroying borida chinoringni top.

Sukut alomati rizo.

Qirqiga chidagan qirq biriga ham chidar.

Ko‘za kunda sinmaydi, kunida sinadi.

Olisdagi palovdan yaqindagi sho‘rva yaxshi.

Folchiga ishonma, suvga suyanma.

O‘ynab gapirsang ham, o‘ylab gapir.

Elakka bormish ayolning ellik og‘iz gapi bor.

Balchiqqa tosh otsang, betingga sachraydi.

Bedana tezotar bo‘lsa, o‘z boshini o‘zi yoradi.

Bir qishning bir yozi bo‘ladi, qarg‘aning qag‘illagani qoladi.

Oyning o‘n beshi qorong‘i bo‘lsa, o‘n beshi yorug‘.

Et bilan tirnoqni ayirib bo‘lmaydi.

O‘nta bo‘lsa o‘rni boshqa, qirqta bo‘lsa qilig‘i.

Yomon xotinning o‘yi ko‘p, poraxo‘rning go‘yi ko‘p.

Eshik ko‘rganni olma, beshik ko‘rganni ol.

Po‘lat pichoq qinsiz qolmaydi.

Qarsak ikki qo‘ldan chiqadi.

Teshik munchoq yerda qolmaydi.

Sabr qilsang, g‘o‘radan holva bitadi.

Sabrning tagi oltin.

Iboralar:

Og‘zidagi og‘zida, bo‘g‘zidagi bo‘g‘zida qolmoq.

Ichimdan top demoq.

Qo‘lini yuvib qo‘ltiqqa urmoq.

Somonday og‘ir bo‘lmoq.

Shox-u buto-g‘ing bormi, muncha kerilasan?

Xush ko‘rdik, xushvaqt bo‘ling.

Topishmoqlar:

Men aytsam, uzun-uzun o‘z ketdi, uzun bo‘ylik qiz ketdi – qasavasi qarsillab, manglayi yerga tarsillab.(o‘rmak)

Kichkina qozonning oshi shirin.(yon-g‘oq)

Bukri momom buk etdi, yugurib uyiga kirib ketdi.(sichqon)

Anavi tog‘dan qaragan, manavi tog‘dan qaragan, o‘zimga yarashar deb balxi ro‘mol o‘ragan. (buzoqboshi)

Aka-uka bir yashaydi, bir-birini ko‘rmaydi.(ko‘z)

Chin qushim, chinni qushim, chin tepaga chiqdi qushim, og‘zidan bol uzatib, xalqqa salom berdi qushim. (samovar)

Tog‘ni talaydi. (bolta)

It emas, irillamas, odam emas, uyga qo‘ymas. (qulf)

Yilting-yilting chirog‘im, yiltillaydi chirog‘im, gavhardan ko‘p qadri, qadrdonim chiro-g‘im. (ko‘z)

Uydamisan, marjon, eshikdamisan, marjon, oyoq-qo‘ling ko‘rinmas, qulfdamisan, marjon. (o‘tov uyi og‘ichi)

Tuzi yo‘q oshni ko‘rdim. (sumalak)

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, asarda qo‘llangan barqaror birikmalar asar badiiyatini oshiradi, tinglovchiga ta’sirli yetishini ta’minlaydi. O‘z navbatida, o‘quvchining fikrlash doirasini kengaytiradi va tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tog‘ay Murod. Oydinda yurgan odamlar. Toshkent – 2017.
2. A.Nurmonov va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Darslik. Toshkent – “Ilm-ziyo” – 2013.
3. Bekmurod Yo‘ldoshev. Frazeologiya tarixidan lavhalar. Samarqand – 1998.